

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**ASQAROV SALAXIDDIN SAITAZIM O'G'LI**

**QO'ZILAR DISPEPSIYASINING ETIOPATOGENEZI, DAVOLASH VA  
OLDINI OLISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**16.00.01 – Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
ветеринарным наукам**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary  
sciences**

**Asqarov Salaxiddin Saitazim o‘g‘li**

Qo‘zilar dispepsiyasining etiopatogenezi, davolash va oldini olish usullarini  
takomillashtirish..... 3

**Аскарлов Салахиддин Саитазим угли**

Этиопатогенез и совершенствование методов лечения и профилактики  
диспепсии ягнят..... 23

**Askarov Salakhiddin Saitazim ugli**

Etiopathogenesis and improvement of methods of treatment and prevention  
of dyspepsia in lambs..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**ASQAROV SALAXIDDIN SAITAZIM O‘G‘LI**

**QO‘ZILAR DISPEPSIYASINING ETIOPATOGENEZI, DAVOLASH VA  
OLDINI OLISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**16.00.01 – Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/V132 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.ssuv.uz](http://www.ssuv.uz)) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Yunusov Xudaynazar Beknazarovich  
biologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Eshburiyev Baxtiyor Mamatqulovich  
veterinariya fanlari doktori, professor

Mamatov Shavkat Sodiqovich  
veterinariya fanlari nomzodi

**Yetakchi tashkilot:** Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «23» 11 soat «10<sup>00</sup>» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99866) 234-76-86; e-mail: [ssuv@edu.uz](mailto:ssuv@edu.uz))

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14329 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99866) 234-76-86; Fax:+998662347686).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 8 » 11 kuni tarqatildi.  
(2024 yil « 8 » 4 dagi № 13 - raqamli reestr bayonnomasi).



N.B.Dilmurodov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi o'rinbosari, vet.f.d., professor

S.B.Eshburiyev  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, vet.f.d., dotsent

Q.N.Norbobev  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, vet.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik davlatlarida qo'ychilikning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri umumiy epizootologik barqarorlik negizida vujudga keladigan ovqat hazm qilish tizimining yuqumsiz etiologiyali kasalliklari, shu jumladan, qo'zilarining dispepsiya kasalligi hisoblanadi. Tadqiqotlarga qaraganda, "qo'zilar o'limining 30-50 foizi hayotining postnatal davriga to'g'ri keladi va bunday o'limning asosiy qismini o'tkir oshqozon-ichak buzilishlari, shu jumladan, dispepsiya kasalligi tashkil etadi"<sup>1</sup>. Shu boisdan, qo'zilarida dispepsiya kasalligini o'z vaqtida aniqlash, samarali davolash va guruhli oldini olish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Dunyo miqyosida qo'zilar orasida dispepsiya kasalligi juda keng tarqalgan, xususan, "AQShda buzoq va qo'zilar orasida o'lim 2,3-7,8 foizni, Kanadada 11,8 foizni tashkil etishi va o'lim darajasining mos holdagi, 56 va 14 foizini diareyalar tashkil etishi va natijada qo'ychilik xo'jaliklarining katta iqtisodiy zarar ko'rishiga sabab bo'lmoqda". Ayni paytda, ushbu kasallikning ertachi tashxis, samarali davolash hamda oldini olish muammolari dunyo olimlarining diqqatini jalb etib kelmoqda. Shu boisdan qo'zilarida dispepsiyaning aniqlash hamda davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub agrar islohatlar natijasida chorva mollari bosh sonining yildan-yilga ko'payib, mahsuldorligi oshib borayotgan bir paytda ayrim xo'jaliklarda 1-20 kunlikgacha bo'lgan 30-40 % qo'zilarining dispepsiya bilan kasallanishi va aksariyat holatlarda kasal qo'zilarining nobud bo'lish hollari kuzatilmoqda. Bu borada qo'zilar dispepsiyasining sabablarini aniqlash, davolash hamda oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"<sup>2</sup> farmoni, 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-sonli "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>2</sup> va 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-son "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>2</sup> gi, 2022-yil 31-martdagi PQ-187-son "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"<sup>2</sup> gi, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"<sup>2</sup> gi qarorlari

<sup>1</sup> Сайдаков Евгений Дымбеевич. Оценка эффективности фитопрепаратов при расстройствах пищеварения у ягнят. Автореферат дисс. на соиск. ученой степени канд. вет. наук. Улан-Удэ-2011.С-24.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»<sup>2</sup> gi farmoni

hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dispepsiya kasalligi bo'yicha xorijiy olimlardan I.P. Kondrarin, N.V. Kurilov, G.G. Sherbakov, A.V. Korobov, I.V. Urban, G.G. Kuznetsovlar, Respublikamiz olimlaridan H.Z. Ibragimov, M.S. Xabiyev, P.B. Boboyev, M.B. Safarov, Q.N. Norboyev, B. Bakirov, B.M. Eshburiyevlar tomonidan salmoqli ilmiy natijalarga erishilgan. Ammo Respublikamizda qorako'l qo'zilar dispepsiyasi bo'yicha bizgacha ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilayotgan "Mega loyiha" doirasida va "Qo'ylarda uchraydigan barcha yuqumsiz, yuqumli va parazitlar kasalliklarining oldini olish va davolash xizmatlarini ko'rsatish" bo'yicha shartnoma (№ 10. 20.05.2024-yil) asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** qo'zilar dispepsiyasining sabablarini aniqlash, ertachi tashxis, davolash hamda guruhli oldini olish usullarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

veterinariya hisobotlari va dispanser tekshirishlar asosida O'zbekiston Respublikasining cho'l, tog' oldi-tog' va tog'li hududlari kesimida qo'zilar dispepsiyasining tarqalishi va iqtisodiy zararini aniqlash;

bug'oz sovliqlar va qo'zilar saqlash hamda oziqlantirish sharoitlarini tahlil qilish asosida qo'zilar dispepsiyasining sabablarini aniqlash;

dispepsiya bilan kasallangan va sog'lom qo'zilar organizmida kuzatiladigan klinik hamda fiziologik, gemomorfologik va biokimyoviy o'zgarishlarni tahlil qilish asosida qo'zilar dispepsiyasining tashxis usullarini ilmiy asoslash;

qo'zilar dispepsiyasining infuzion eritmalar, antibakterial preparatlar, burishtiruvchi xususiyatli shifobaxsh fitoterapevtik vositalar va mos probiotiklarni qo'llashga asoslangan samarali davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan tajribalar o'tkazish;

qo'zilar dispepsiyasini davolash va oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti vivariysida tashkil etilgan "MEGA LOYIHA" doirasida qorako'l zotli sog'lom, ketonuriya, alimentar osteodistrofiya, alimentar distrofiya va jigar distrofiyasi bilan kasallangan bug'oz hamda tuqqan sovliq va qo'zilardan, shuningdek, Elbahor o'simligi damlamasi, Infuzion eritma,

Innoprovet probiotigi, LPP-1 premiksi, Multivit + mineral preparati va maxsus granulali omixta yemdan foydalanildi.

**Tadqiqotning predmeti** qorako‘l qo‘zilarda dispepsiyaning tarqalishi, iqtisodiy zarari, antinatal va postnatal sabablari, bug‘oz sovliq organizmida kechadigan metabolizm buzilishlarining ulardan tug‘ilgan qo‘zilarning dispepsiya bilan kasallanishi va patogenetik aloqasi, qo‘zilarda dispepsiyaning rivojlanish mexanizmi, simptomlari va gemomorfologik hamda gemobiokimyoviy ko‘rsatkichlar, tashxisi, davolash va guruhli oldini olish usullari hisoblandi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda klinik, gematologik, gemomorfologik, gemobiokimyoviy, mikroskopik, immunologik, zootexnikaviy va statistik usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Respublikamizning cho‘l, tog‘ oldi-tog‘ va tog‘li hududlari sharoitlaridagi qorako‘l qo‘zilarda dispepsiya kasalligining 22-29 foizgacha tarqalishi aniqlangan;

qo‘zilarda dispepsiya kasalligining homila davri va qo‘zilar tug‘ilgandan keyingi davrlar uchun xos bo‘lgan asosiy sabablari aniqlangan;

dispepsiya bilan kasallangan qo‘zilarni muntazam kuzatish va tekshirish asosida kasallik belgilari va kasal qo‘zi ahvolining 72 soat davomidagi o‘zgarishlar dinamikasi, shuningdek asosiy kritik lahzalar namoyon bo‘lishi ilmiy asoslangan;

qo‘zilarda dispepsiya kasalligini 0,1 foizli Elbahor o‘simligi damlamasi (50 ml/10 kg), Multivit + minerallar vitaminli preparati (5 ml/50 kg), Innoprovet probiotigi (1 g/100 ml sutga) va maxsus granulali omixta yemni qo‘llashga asoslangan samarali etiopatogenetik davolash usuli ishlab chiqilgan;

qo‘zilarda dispepsiya kasalligining bir vaqtning o‘zida ham bug‘oz sovliq organizmida metabolizm buzilishlarini mo‘tadillashtirish, ham qo‘zilar tug‘ilgandan keyin ularga tasir etuvchi postnatal sabablarni bartaraf etishga asoslangan samarali qo‘shaloq guruhli oldini olish usuli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Respublikamizning turli hududlari sharoitlarida qorako‘l qo‘zilarni mavsumiy dispanserlash negizida klinik hamda laborator tekshirishlar orqali qo‘zilarning dispepsiya bilan kasallanish darajasi Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qorako‘lchilikka ixtisoslashgan “Olg‘a” MCHJda 30,0 %, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi “Bobur Murodullayevich XK”ga qarashli qo‘ychilik fermer xo‘jaligida 25,0 % va Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi “Qum kamar” fermer xo‘jaligida 20,0 %ni tashkil etishi aniqlangan;

dispepsiya kasalligining Elbahor o‘simligi damlamasi, Infuzion eritma, Innoprovet probiotigi, LPP-1 premiksi, Multivit + mineral preparati va maxsus granulali omixta yemdan foydalanishga asoslangan samarali etiopatogenetik davolash usulini qo‘llash asosida Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qorako‘lchilikka ixtisoslashgan “Olg‘a” MCHJ, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi “Bobur Murodullayevich XK”ga qarashli qo‘ychilik

fermer xo‘jaligida va Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi “Qum kamar” fermer xo‘jaligida dispepsiya bilan kasallangan qo‘zilarni samarali davolashga erishildi va bunda sog‘ayish muddati nazoratga nisbatan 3-5 kunga qisqartirilishi evaziga terapevtik samaradorlik har bosh davolangan qo‘zi hisobiga o‘rtacha 236986 so‘mni tashkil etdi;

dispepsiya kasalligining bug‘oz sovliq organizmida metabolizm buzilishlarini mo‘tadillashtirish yo‘li bilan antnatal-metabolik va mavjud postnatal sabablarni bartaraf etishga asoslangan samarali guruhli oldini olish usulini qo‘llash asosida Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qorako‘lchilikka ixtisoslashgan “Olg‘a” MCHJga qarashli 450 bosh, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi “Bobur Murodullayevich XK”ga qarashli qo‘ychilik fermer xo‘jaligida 350 bosh va Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi “Qum kamar” fermer xo‘jaligiga qarashli 450 bosh sovliqlarda metabolizm buzilishlarining va natijada ulardan tug‘ilgan qo‘zilarda dispepsiya kasalligining oldini olishga erishildi va bunda profilaktik samaradorlik o‘rtacha 332616 so‘mni tashkil etdi;

qo‘zilarda dispepsiya kasalligining sabablari, tashxis usullari va davolash hamda oldini olish choralari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va respublikamizning qo‘ychilik xo‘jaliklariga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tekshirishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o‘tkazilganligi, birlamchi ma‘lumotlarga biometrik ishlov berilganligi va ularning ilmiy tahlil qilinganligi, olingan nazariy natijalarning tajriba ma‘lumotlari bilan to‘g‘ri kelishi, shaxsiy tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar asosida chuqur ilmiy tahlil qilinganligi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti aprobatsiya komissiyasi tomonidan ilmiy tadqiqot va birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, ilmiy ishlar natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati respublikamizning turli hududlari sharoitidagi qorako‘l qo‘zilarda dispepsiyaning paydo bo‘lishida homila davrida ona sovliqlardagi ketonuriya, alimentar osteodistrofiya, alimentar distrofiya va gepatodistrofiya kasalliklari hamda tug‘ilgandan keyingi davridagi mavjud alimentar-texnologik va sanitar-gigiyenik sharoitlarning etiopatogenetik ahamiyati, kasallikning klinik belgilari va kechish xususiyatlarining aniqlanganligi, ayrim fitoterapevtik, probiotikli va vitaminli komplekslarning sinovdan o‘tkazilib, ularning kasal qo‘zilarning klinik ko‘rsatkichlari hamda qonning morfologik, biokimyoviy va immunologik ko‘rsatkichlariga ta‘siri natijasida vujudga keladigan o‘zgarishlarning tahlil qilinganligi va preparatlar samaradorligining nazariy va amaliy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Qo‘zilarda dispepsiya kasalligining sabablari, tashxis usullari va davolash hamda oldini olish choralari bo‘yicha tavsiyalar”ni qo‘llash orqali qo‘zilar orasida keng tarqalgan dispepsiya kasalligini o‘z vaqtida aniqlash, samarali davolash va guruhli oldini olishga



erishilganligi bilan, shuningdek, kasallanib sog‘aygan qo‘zilar hayotchanligining oshib, o‘shish va rivojlanishining yaxshilanishi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qo‘zilar dispepsiyasining etiopatogenezi, davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar asosida:

“Qo‘zilar dispepsiya kasalligining sabablari, tashxis usullari va davolash hamda oldini olish choralari bo‘yicha tavsiyalar” tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qorako‘lchilikka ixtisoslashgan “Olg‘a” MCHJga, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi “Bobur Murodullayevich XK”ga qarashli qo‘ychilik fermer xo‘jaligiga va Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi “Qum kamar” fermer xo‘jaligiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 8-iyuldagi № 02/23-390-son ma‘lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarni qo‘llash evaziga qo‘zilarning dispepsiya bilan kasallanish darajasi va sabablarini aniqlashga erishilgan;

qo‘zilar dispepsiyani davolashda Elbahor o‘simligi damlamasi, Infuzion eritma, Innoprovot probiotigi, LPP-1 premiksi, Multivit + mineral preparati va maxsus granulali omixta yemdan foydalanishga asoslangan samarali etiopatogenetik davolash usuli ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 8-iyuldagi № 02/23-390-son ma‘lumotnomasi). Ushbu davolash usulini joriy etish natijasida dispepsiya bilan kasallangan qo‘zilarning to‘liq sog‘ayishiga hamda sarflangan 1 so‘m xarajat hisobiga 3,5 so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishilgan;

qo‘zilar dispepsiyaning oldini olish uchun bug‘oz sovliq organizmida metabolizm buzilishlarini mo‘tadillashtirish yo‘li bilan antnatal-metabolik va mavjud postnatal sabablarni bartaraf etishga asoslangan samarali guruhli oldini olish usuli ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 8-iyuldagi № 02/23-390-son ma‘lumotnomasi). Ushbu oldini olish usulini joriy etish natijasida qo‘zilarning dispepsiya bilan kasallanishining to‘liq oldini olishga hamda sarflangan 1 so‘m xarajat hisobiga 3,0 so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 6 ta, jumladan 2 xalqaro va 4 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy maqola chop qilingan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissetatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, shundan 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Olingan natijalar bo‘yicha 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zarurati, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob‘ekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarinig ishonchligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “Adabiyot sharhi” deb nomlangan birinchi bob uch qismga bo‘lingan bo‘lib, uning birinchi qismida yosh hayvonlar organizmining o‘ziga xos xususiyatlari, respublikamiz va dunyo olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan. Ikkinchi qismida yosh hayvonlarning diareya bilan o‘tadigan kasalliklarining umumiy tavsifi to‘g‘risidagi ilmiy adabiyotlar ma‘lumotlari bayon etilgan. Uchinchi qismida qo‘zilar dispepsiyasining sabablari, klinik belgilari, tashxis usullari, davolash hamda oldini olish chora-tadbirlari, shuningdek, kasal hayvonlarni davolash va oldini olish bo‘yicha ilmiy-amaliy va nazariy ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Tadqiqotlar ob‘yekti va uslublari” deb nomlangan ikkinchi bobi ikki qismga bo‘lingan bo‘lib, birinchi qismida tadqiqotlar ob‘yekti va tajriba shartlari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Ilmiy tadqiqotlar 2021-2024-yillar davomida Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qorako‘lchilikka ixtisoslashgan “Olg‘a” MCHJ, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi “Bobur Murodullayevich XK”ga qarashli qo‘ychilik fermer xo‘jaligi va Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi “Qum kamar” fermer xo‘jaligi hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti vivariysi sharoitidagi sog‘lom, ketonuriya, alimantar osteodistrofiya, alimantar distrofiya va jigar distrofiyasi bilan kasallangan bug‘oz hamda tuqqan qorako‘l zotli sovliq va qo‘zilarda olib borildi.

Laborator tekshirishlar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasining “Gematologiya” laboratoriyasida, oziqalarni laborator tekshirishlar esa Samarqand viloyati “Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markaz”da o‘tkazildi. Bunda qonning gematokrit ko‘rsatkichi (Y.Todorov usuli), eritrotsitlar va leykotsitlar soni (Goryayev usuli), gemoglobin (Sali usuli), glukoza (Orto-toluidinli rangli reaksiya), keton tanachalari (ketometr yordamidagi ekspress usul), qon zardobidagi umumiy oqsil (refraktometrik usul) va ishqoriy zahira (Rayevskiy usuli) aniqlandi.

Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari sharoitlaridagi bug‘oz sovliqlar uchun belgilangan ratsionlarni zootexnikaviy tahlildan o‘tkazishda undagi ozuqa birligi, hazmlanuvchi protein, qand, kalsiy, fosfor va

karotin miqdorlari, yangi tugʻilgan qoʻzilar emadigan uvuz (yoki sut) organoleptik tekshirishlardan oʻtkazildi va undagi pH-koʻrsatkichi hamda Ig-lar (mekv/l) va kolostrometr yordamida uvuzdagi immunoglobulinlar miqdori aniqlandi.

Klinik tekshirishlar orqali qoʻzilarning tana harorati, bir daqiqada yurak urishi va nafas soni, umumiy ahvoli, kam harakatchanlik, soʻrish refleksining susayishi (yoʻqolishi), diareya, koʻz olmasining choʻkishi, teri turgorligining pasayishi, ataksiya va ishtahasi aniqlandi.

Ikkinchi qismida tajribalar boshida dispanser tekshirishlarda poda sindromatikasini aniqlashda har uch viloyat sharoitlaridagi jami 1250 bosh sovliq (Samarqand viloyati boʻyicha 450 bosh, Qashqadaryo viloyati boʻyicha 350 bosh, Surxondaryo viloyati boʻyicha 450 bosh) sovliq va jami 625 bosh yangi tugʻilgan qoʻzi (Samarqand viloyati boʻyicha 210 bosh, Qashqadaryo viloyati boʻyicha 200 bosh, Surxondaryo viloyati boʻyicha 215 bosh) oxirgi uch yillik mahsuldorlik, kasallanish va chiqim koʻrsatkichlari dinamikasi oʻrganildi. Klinik statusni aniqlashda sovliqlarda yiliga 4 martadan mavsumiy klinik tekshirishlar va ulardan olingan qon namunalari esa morfologik va biokimyoviy tekshirishlardan oʻtkazildi.

Yangi tugʻilgan qoʻzilarda esa tugʻilgan paytda va onasidan ajratilish paytlaridagi klinik tekshirishlar va ulardan olingan qon namunalarida esa morfologik va biokimyoviy tekshirishlar oʻtkazildi. Klinik hamda fiziologik tekshirishlar va qonni morfo-biokimyoviy tekshirishlar, shuningdek, dispepsiyani davolash tajribalarida ham, oldini olish tajribalarida ham muntazam ravishda oʻtkazilib turildi.

Dissertatsiyaning “Qoʻzilar dispepsiyasining tarqalishi, sabablari va simptomlari” deb nomlangan uchinchi bobi toʻrt boʻlimdan iborat boʻlib, uning birinchi boʻlim “Boʻgʻoz sovliq va qoʻzilarni dispanserlash natijalari” tahlili berilgan jami 1250 bosh sovliq (Samarqand viloyati boʻyicha 450 bosh, Qashqadaryo viloyati boʻyicha 350 bosh, Surxondaryo viloyati boʻyicha 450 bosh) sovliq va jami 625 bosh yangi tugʻilgan qoʻzi (mos holda, 210, 200 va 215 bosh)da dispanser tadqiqotlari oʻtkazildi.


Dispanserlashda sovliqlarning klinik koʻrsatkichlarining bugʻozlik davrlari boʻyicha dinamikasi (1-rasm) maʼlumotlari shuni koʻrsatdiki, tajribadagi sovliqlarning tana harorati oʻrtacha 38,22 - 38,75 °C ni tashkil etdi va sovliqlarning bugʻozlik davrlari boʻyicha oʻzgarishlarga uchramadi.

Bir daqiqada yurak urishi (71,3 dan 78,3 gacha) va nafas soni (25,2 dan 31,5 gacha) koʻrsatkichlari sovliqlarning bugʻozlik davrlariga mos holda bir tekisda koʻtarilib borgan boʻlsa, katta qorin devorining harakati bu paytda, aksincha pasayib (2,5 dan 2,2 gacha) bordi.

Shilliq pardalarning sargʻayishi (13,3 % dan 33,2 % gacha), jigar chegarasining kattalashishi (6,6 % dan 33,2 % gacha) va jigar sohasining ogʻriq sezishi (6,6 % dan 26,6 % gacha) kuzatilgan hayvonlar soni bugʻozlik davrlariga mos holda oshib borganligi qayd etildi.

Ushbu maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, qorakoʻl sovliqlarning aksariyat klinik koʻrsatkichlari yil mavsumlari va bugʻozlik davrlari boʻyicha oʻziga xos

tarzdagi o'zgarishlarga uchraydi va bu o'zgarishlar sovliqlar organizmida moddalar almashinuvining buzilishlari va jigar funksional holatining o'zgarishlari paytlarida ayniqsa sezilarli tus oladi.



**1-rasm. Dispanserlashda sovliqlarning klinik ko'rsatkichlarining bug'ozlik davrlari bo'yicha dinamikasi**

Ayni paytda, bir daqiqada yurak urishi va nafasning tezlashishi, katta qorin devori harakatining susayishi, shilliq pardalarning sarg'ayishi, jigar chegarasining kattalashishi va uning og'riq sezishi sovliqlar bug'ozligining chuqurlashishi bilan ular organizmida modda almashishinuvi buzilishlari va jigar distrofiyasining rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Ushbu bobning ikkinchi bo'limda "Qo'zilar dispepsiyasining sabablari" berilgan tadqiqotlarning mazkur bosqichi klinik sog'lom sovliqlardan, shuningdek, ketonuriya, alimentar osteodistrofiya, alimentar distrofiya va jigar distrofiyasi bilan kasallangan sovliqlardan tug'ilgan qo'zilarining dispepsiya bilan kasallanish darajasi tahlil qilindi.

Umuman olganda, Respublikamizning Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining qorako'l qo'ylar parvarishlanadigan hududlari bo'yicha qorako'l qo'zilarining dispepsiya bilan kasallanish darajasi shartli sog'lom sovliqlardan tug'ilgan qo'zilarida o'rtacha 13 % ni, ketonuriya bilan kasallangan sovliqlardan tug'ilgan qo'zilarida 33 % ni, alimentar osteodistrofiya bilan kasallangan sovliqlardan tug'ilgan qo'zilarida 47 % ni, alimentar distrofiya bilan kasallangan sovliqlardan tug'ilgan qo'zilarida 47 % ni, jigar distrofiyasi bilan kasallangan sovliqlardan tug'ilgan qo'zilarida 60 % ni tashkil etdi. Bunda, mazkur hududlarda dispepsiyani keltirib chiqarishda metabolizm buzilishlari orasida ketonuriyaning ulushi o'rtacha 16,7 % ni, alimentar osteodistrofiyaniki 16,7 % ni, alimentar distrofiyaniki 23,3 % ni, jigar distrofiyasini 30 % ni, sog'lom sovliqlardan tug'ilgan qo'ziarda esa 13,4 % ni tashkil etishi aniqlandi.

Demak, Respublikamizning Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining qorako‘l qo‘ylar boqiladigan hududlari sharoitlaridagi qorako‘l qo‘zilarning dispepsiya bilan kasallanishida bug‘oz sovliqlar organizmida kechadigan metabolizm buzilishlari asosiy rol ni o‘ynaydi va bunda sog‘lom sovliqlardan tug‘ilgan qo‘zilarning dispepsiya bilan kasallanish darajasi o‘rtacha 13 foizini tashkil etgani holda, ketonuriya bilan kasallangan sovliqlardan tug‘ilgan qo‘zilarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 33 foizgacha, alimentar osteodistrofiya paytida 47 foizgacha, alimentar distrofiya paytida 47 foizgacha va jigar distrofiyasi paytida 60 foizgacha yetadi.

### 1-jadval

#### Dispepsiyaning kelib chiqishida bug‘oz sovliq organizmidagi modda almashinuvi holatining o‘rni

T/r	Xo‘jalik nomi	Ko‘rsatkichlar	Sog‘lom sovliqlar	Ketonuriya	Alimentar osteodistrofiya	Alimentar distrofiya	Jigar distrofiyasi
1.	“Olg‘a”	Sovliq soni	5	5	5	5	5
		Olingan qo‘zi	5	5	5	5	5
		Dispepsiya bilan kasallanish darajasi,%	1 (20/7,7 %)	2 (40/15,4 %)	3 (60/23,1 %)	3 (60/23,1 %)	4 (80/30,7 %)
2.	“Bobur Murodullayevich”	Sovliq soni	5	5	5	5	5
		Olingan qo‘zi	5	5	5	5	5
		Dispepsiya bilan kasallanish darajasi,%	1 (20/10%)	2 (40/20%)	2 (40/20%)	2 (40/20%)	3 (60/30%)
3.	“Qum kamar”	Sovliq soni	5	5	5	5	5
		Olingan qo‘zi	5	5	5	5	5
		Dispepsiya bilan kasallanish darajasi,%	1 (20/14,2 %)	1 (20/14,2 %)	1 (20/14,2 %)	2 (40/28,6 %)	2 (40/28,6 %)
<b>JAMI</b>	Sovliq soni	<b>15</b>	<b>15</b>	<b>15</b>	<b>15</b>	<b>15</b>	<b>15</b>
	Olingan qo‘zi	<b>15</b>	<b>15</b>	<b>15</b>	<b>15</b>	<b>15</b>	<b>15</b>
	Dispepsiya bilan kasallanish darajasi,%	3 (13/13,4 %)	5 (33/16,7 %)	6 (47/16,7 %)	7 (47/23,3 %)	9 (60/30 %)	

Ushbu bobning uchinchi bo‘limida “Dispepsiya bilan kasallangan qo‘zilarning klinik belgilari” tahlili berilgan. Tajribalar uchun sog‘lom sovliqlardan tug‘ilgan va yo‘l qo‘yilgan sanitar-gigiyenik va texnologik kamchiliklar tufayli dispepsiya bilan kasallangan 10 bosh, organizmida modda almashinuvi buzilishlari kuzatilgan sovliqlardan tug‘ilgan va dispepsiya bilan kasallangan 40 bosh, jami 50 bosh qo‘zi turli variantlardagi davolash tajribalari uchun foydalanildi va kasallik boshidan uning oqibati ma’lum bo‘lguniga qadar to‘liq klinik hamda laborator tekshirishlardan o‘tkazib turildi. Kasal qo‘zilarni dastlabki kuzatish natijalari 2-jadvalda berilgan.

## Dispepsiya bilan kasallangan qo‘zilarni klinik kuzatish natijalari

Korsatkichlar	Sog‘lom sovliqlar	Ketonuriya	Alimentar osteo-distrofiya	Alimentar distrofiya	Jigar distrofiyasi
Yangi tug‘ilgan qo‘zining o‘rtacha tirik vazni, kg	3,25±0,02	3,45±0,03	2,90±0,02	2,75±0,01	3,0±0,03
Kasallikning boshlanishi, kun	5-7	3-4	4-6	3-5	2-3
Umumiy dispeptik o‘zgarishlar	+	+	+	+	+
Og‘irlik darajasi	O‘rta	<b>O‘gir</b>	O‘rta	O‘rta	<b>Og‘ir</b>
Ikkilamchi kasalliklar	Gastroenterit	Gastroenterit, Kolibakterioz, Salmonellyoz	Gastroenterit	Gastroenterit	Gastroenterit, Kolibakterioz, Salmonellyoz
O‘lish davri, kun	7-10 kun	6-7 kun	10-11 kun	12-13 kun	7-8 kun
O‘lim darajasi, %	30	60	40	50	70

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qorako‘lchilikka ixtisoslashgan “Olg‘a” MCHJ sharoitidagi sog‘lom sovliqlardan tug‘ilgan qo‘zilarning o‘rtacha tirik vazni 3,25±0,02 kg ni tashkil etdi (normatrofiya). Bunday qo‘zilarning dispepsiya bilan kasallanishi hayotining dastlabki 5-7-kunlarida ro‘y berdi. Kasal qo‘zilarda umumiy dispeptik belgilar, xususan, umumiy holsizlanish va kam harakatchanlik, ich ketishi, suvsizlanish, pulsning susayishi, yurak tomonni avaylash, bosib ko‘rilganda qorin sohasining og‘riq sezishi va keyinchalik periferik gipotermiya belgilari qayd etildi. Kasallik o‘rta darajada o‘tdi. Kasallikning 7-10-kunlariga borib 30 % qo‘zining nobud bo‘lishi kuzatildi.

Bug‘ozligining oxirgi davrlarida ketonuriya bilan kasallangan sovliqlardan tug‘ilgan qo‘zilarning o‘rtacha tirik vazni 3,5±0,03 kg ni tashkil etdi, ya‘ni ushbu kasallik paytida homila gipertrofiyasi kuzatildi. Bunday qo‘zilarning dispepsiya bilan kasallanishi asosan, hayotining dastlabki 3-4-kunlarida ro‘y berdi.

Kasal qo‘zilarda umumiy dispeptik belgilar bilan birgalikda toksemiya belgilari (tashqi ta‘sirotlarga befarqlik, shilliq pardalar giperemiyasi, klonik va tetanik qaltiroqlar va boshqalar) va bir daqiqada yurak urishining susayishi yanada kuchliroq namoyon bo‘lishi belgilari qayd etildi.

Kasallik og‘ir darajada o‘tdi. Kasallikning 6-7-kunlariga borib 60 % qo‘zining nobud bo‘lishi kuzatildi.

Bug‘ozligining oxirgi davrlarida alimentar osteodistrofiya bilan kasallangan sovliqlardan tug‘ilgan qo‘zilarning o‘rtacha tirik vazni 2,9±0,02 kg ni tashkil etdi, ya‘ni ushbu kasallik paytida kuchsiz darajadagi homila gipotrofiyasi kuzatildi.

Bunday qo‘zilarning dispepsiya bilan kasallanishi asosan, hayotining dastlabki 4-6-kunlarida ro‘y berdi va kasallik umumiy dispeptik belgilar bilan

namoyon bo'ldi. Kasallik o'rta darajada o'tdi va uning 10-11-kunlariga borib 40 % qo'zining nobud bo'lishi kuzatildi.

Bug'ozligining oxirgi davrlarida alimantar distrofiya bilan kasallangan sovliqlardan tug'ilgan qo'zilarining o'rtacha tirik vazni  $2,75 \pm 0,01$  kg ni tashkil etdi, ya'ni ushbu kasallik paytida kuchli darajadagi homila gipotrofiyasi kuzatildi. Bunday qo'zilarining dispepsiya bilan kasallanishi asosan, hayotining dastlabki 8-10-kunlarida ro'y berdi va kasallik umumiy dispeptik belgilar bilan namoyon bo'ldi. Kasallik o'rta darajada o'tdi va uning 12-13-kunlariga borib 50 % qo'zining nobud bo'lishi kuzatildi.

Bug'ozligining oxirgi davrlarida gepatodistrofiya bilan kasallangan sovliqlardan tug'ilgan qo'zilarining o'rtacha tirik vazni  $3,0 \pm 0,03$  kg ni tashkil etdi, ya'ni ushbu kasallik paytida homila tirik vaznining jiddiy o'zgarishlari kuzatilmagan bo'lsada, bunday qo'zilarining dispepsiya bilan kasallanishi asosan, hayotining dastlabki 4-5-kunlarida ro'y berdi va kasal qo'zilarida umumiy dispeptik belgilar bilan birgalikda toksemiya belgilari ham qayd etildi.

Kasallik og'ir darajada o'tdi va uning 7-8-kunlariga borib 70 % qo'zining nobud bo'lishi kuzatildi. Kasallanib o'lgan qo'zilarini patologoanatomik yorib ko'rish natijalari shuni ko'rsatdiki, dispepsiya paytida qo'zilarida asosiy patologoanatomik belgi bo'lib kataral-gemorragik gastroenterit, hali ishlamayotgan oshqozon oldi bo'limlarida ivib qolgan uviz parchalarining saqlanishi va taloq atrofiyasi hisoblanadi.

Ketonuriya va gepatodistrofiya bilan kasallangan sovliqlardan tug'ilgan qo'zilarida bulardan tashqari, jigarda har xil darajadagi distrofik o'zgarishlar, shuningdek, buyrak hamda yurak muskullarining har xil o'zgarishlarga uchrashi qayd etildi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, dispepsiya paytida dastlab, ya'ni kasallikning 1-6-soatlari davomida kasal qo'zida harakatning susayishi, 6-12-soatiga kelib so'rish refleksining susayishi, diareya va taxikardiya belgilarining paydo bo'lishi qayd etildi.

Uning 12-18-soatida ushbu belgilardan tashqari ko'z olmasining cho'kishi, terining quruqlashishi, nafasning tezlashishi va depressiya belgilarining paydo bolishi kuzatildi.

Kasallikning 18-24-soatiga kelib so'rish refleksining susayishi uning batamom yo'qolishi bilan, taxikardiyaning bradikardia bilan almashishi hamda ataksiya belgilarining paydo bo'lishi qayd etildi.

Kasallikning 24-36-soatiga kelib nafas olishning siyraklashishi va kasal qo'zining yotib qolishi, kaxeziya va periferik gipotermiya va keyinchalik (36-48-soatida) agonal holat va o'lim holatlarining qayd etilishi boshlandi.

Kasallikning 48-72-soatlarida o'lim 80 % ni tashkil etdi va qolgan 20 % qo'zida kasallikning gastroenteritga aylanganligi qayd etildi.

Kasal qo'zilarida umumiy dispeptik o'zgarishlar dinamikasi 3-rasmda yanada aniq ifodalangan.

Bunda, kasallik boshlanishi bilan dastlab harakatning susayishi, uning 6-12-soatiga borib, so'rish refleksining susayishi bilan diareya (12-18-soatda), ko'z olmasining cho'kishi, terining quruqlashishi belgilari va depressiya belgilari paydo bo'ladi.

So‘rish refleksining yo‘qolishi kasallikning 18-24-soatida 3 %, 24-36-soatida 40 %, 36-48-soatida 60 % va 48-72-soatiga kelib esa 100 % hayvonda qayd etilishi aniqlandi.

Depressiya belgilari kasallikning 12-18-soatida 30 %, 18-24-soatida 40 %, keyinchalik esa, mos holda, 50, 70 va 80 % hayvonda kuzatilishi aniqlandi.

Kasal qo‘zilarida umumiy dispeptik o‘zgarishlarni o‘rganish natijalari 3-jadvalda berilgan.

### 3-jadval

#### Kasal qo‘zilarida umumiy dispeptik o‘zgarishlarning paydo bo‘lish darajasi bosh soni (n=30)

T/r	Kasallik belgisi	Kasallikning kechish davri, soat						
		1-6	6-12	12-18	18-24	24-36	36-48	48-72
1.	Harakatning susayishi	+20 %	+20 %	+30 %	+40 %	+50 %	+60 %	+80 %
2.	So‘rish refleksining susayishi (+) va yo‘qalishi (-)	-	+50 %	+60 %	-30 %	-40 %	-60 %	-100 %
3.	Diareya	-	+20 %	+30 %	+40 %	+50 %	+60 %	+80 %
4.	Ko‘z olmasining cho‘kishi	-	-	+20 %	+30 %	+40 %	+60 %	+80 %
5.	Terining quruqlashishi	-	-	+20 %	+30 %	+40 %	+60 %	+80 %
6.	Pulsi, marta/daqiqqa	155,6	159,5	161,3	158,2	155,3	152,2	146,3
7.	Taxikardiya (+) va bradikard (-)	-	+30 %	+40 %	-50 %	-60 %	-70 %	-80 %
8.	Nafas soni, marta/daqiqqa	46,9	47,0	48,3	48,7	46,4	45,4	44,1
9.	Nafasning tezlashishi (+), susayishi (-)	-	-	+20 %	+40 %	-30 %	-40 %	-60 %
10.	Depressiya	-	-	+30 %	+40 %	+50 %	+70 %	+80 %
11.	Ataksiya	-	-	-	+30 %	+40 %	+50 %	+60 %
12.	Yotib qolish	-	-	-	-	+30 %	+50 %	+100 %
13.	Kaxeksiya	-	-	-	-	+30 %	+60 %	+90 %
14.	Tana harorati, °C	40,0	39,9	40,1	40,3	39,5	39,0	38,5
15.	Periferik gipotermiya	-	-	-	-	+30 %	+60 %	+80 %
16.	Agonal holat	-	-	-	-	-	+50 %	+80 %
17.	O‘lim	-	-	-	-	-	+40 %	+80 %

Kasallikning 18-24-soatida ataksiya belgisi, 24-36-soatida yotib qolish, kaxeksiya va periferik gipotermiya belgilari paydo boladi.

Kasallikning 36-48-soatlariga kelib ushbu belgilarga qo‘shimcha ravishda 50 % hayvonda agonal holat va 40 % hayvonda o‘lim holati, 48-72-soatiga kelib esa 8 % hayvonda agonal va o‘lim holatlari kuzatilishi qayd etildi.

**Uvuzni tekshirish natijalari.** Sovliqlar tuqqandan keyin 1-2-soat ichida olingan uvuz namunalarida Kolostrometr yordamida uvuzdagi immunoglobulinlar miqdorini aniqlash natijalari 4-jadvalda berilgan.



**Yangi tuqqan sovliqlar uvuzi tarkibidagi immunoglobulin IgG miqdorlari**


T/r	Hayvon turi	Uvuz tarkibidagi IgG miqdori, g/l	
		P (zichligi)	IgG
1.	Sogʻlom sovliqlar	1,060±0,014	60,0±0,55
2.	Metabolizm buzishlari kuzatilgan sovliqlar (yengil daraja)	1,046±0,012	46,0±0,46
3.	Metabolizm buzishlari kuzatilgan sovliqlar (ogʻir daraja)	1,032±0,015	32,0±0,56

Jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, sogʻlom sovliqlardan sogʻib olingan uvuz tarkibidagi IgG miqdori oʻrtacha 60,0±0,55 g/l ni, metabolizm buzishlari kuzatilgan sovliqlarda esa bu koʻrsatkich oʻrtacha 32,0±0,56 - 46,0±0,46 g/l gacha kamayishi kuzatildi.

Morin DE, McCoy GC, Hurley WLarning taʼkidlashlariga qaraganda uvuz tarkibidagi immunoglobulinlarning kam miqdorlarda boʻlishi diareyaga sabab boʻladi.

Ushbu bobning turtinchi boʻlimda “Dispepsiya bilan kasallangan qoʻzilardan olingan qonni fizik-kimyoviy va morfo-biokimyoviy koʻrsatkichlari” tahlili berilgan.

Qoʻzilar dispepsiyasi paytida qonda yuz beradigan oʻzgarishlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda xulosa chiqarish mumkinki, dispepsiya paytida kasal qoʻzilar qonida gemoglobinning 68,8±0,11 g/l gacha, glukozaning 1,60±0,04 mmol/l gacha, pH-ning 6,5 gacha, ishqoriy zahiraning 3,22±0,10 mekv/l gacha, IgG ning 7,6 mg/ml gacha pasayishi, gematokrit koʻrsatkichining esa 48,8% gacha koʻtarilishi kuzatiladi.



**2-rasm. Dispepsiya paytida qoʻzilar qonining fizik-kimyoviy hamda morfo-biokimyoviy koʻrsatkichlari dinamikasi**

Kasal qoʻzilarda qondagi oʻzgarishlar dinamikasi 2-rasmda yanada aniq ifodalangan. Bunda, kasallik patogenezida gemoglobin, glukoz, pH, ishqoriy zahira va IgG ning ishonchli tarzda ( $P \leq 0,001$ ) pasayib borishi, gematokrit


ko'rsatkichining esa 48,8 % gacha (37,5-40,0) ko'tarilishi qayd etildi.

Qonda kuzatilgan morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha yuz bergan bunday o'zgarishlarni diareya, suvsizlanish, toksemiya va modda almashinuvining buzilishlari bilan izohlash mumkin.

Dissertatsiyaning "Qo'zilar dispepsiyasining davolash usullarini takomillashtirish" deb nomlangan beshinchi bobida davolash tajriba natijalari keltirilgan. Nazorat guruhidagi kasal qo'zilar 3 soat davomida och holda saqlandi va keyin kuniga 2 martadan 200 ml miqdorida 0,9 %-li natriy xlorid eritmasidan ichirildi, kuniga bir martadan muskul orasiga 1 ml miqdorida 5 %-li oksitetratsiklin gidroxlorid antibiotigi yuborildi.

1-tajriba guruhidagi kasal qo'zilarga 0,9 % li natriy xlorid eritmasini ichirish o'rniga tarkibi 10,0 natriy xlorid, 30,0 glukoza, 0,4 kaliy xlorid, 0,4 kalsiy xlorid, 0,5 kofein natriy benzoat va 1000,0 gacha distillangan suvdan iborat eritmani qaynatilib 38-39 °C gacha sovitilgandan keyin 3,0 natriy gidrokarbonat, 500000 TB benzilpenitsillinning natriyli tuzi aralashirilgan infuzion eritmadan 200 ml qorin bo'shlig'iga yuborish va 5 % li oksitetratsiklin gidroxlorid o'rniga 1g/10 kg miqdorida Innoprovot probiotigi ichirildi.

2-tajriba guruhidagi kasal qo'zilarga esa 1-tajriba guruhidagi davolash muolajalariga qo'shimcha ravishda 0,1 % Elbahor o'simligi damlamasi 50 ml/10 kg miqdorida ichirildi.




### 3-rasm Davolash tadbirlarining kasal qo'zilar qon ko'rsakichlariga ta'siri

3-rasmdan ko'rinib turibdiki, davolash tajribalarida nazorat guruhidagi qo'zilar qonida eritrotsitlar, leykotsitlar va umumiy oqsil miqdorlari bo'yicha to'g'ri chiziqli dinamika kuzatilmadi.

Qondagi gemoglobin miqdorining  $98,8 \pm 1,1$  dan  $75,8 \pm 1,0$  g/l gacha (30,3 % ga) va glukoza miqdorining  $2,3 \pm 0,08$  dan  $1,60 \pm 0,04$  mmol/l gacha (43,7 % ga) dinamik tarzda pasayib borish dinamikasini namoyon etdi.


Gematokrit ko'rsatkichi qo'zilar kasallanishining dastlabki kunlaridagi o'rtacha  $37,8 \pm 0,10$  % dan  $48,8 \pm 0,2$  % gacha (29,0 % ga) oshish dinamikasini namoyon etdi.



**4-rasm. Davolash tadbirlarining kasal qo'zilar qon ko'rsakichlariga ta'siri**

4-rasmdan ko'rinib turibdiki, davolash tajribalarida birinchi tajriba guruhidagi qo'zilar qonida eritrositlar soni (6,3 dan 6,9 mln/mkl gacha, 9,5 % ga), gemoglobin miqdori (92,0 dan 105,5 g/l gacha, 14,6 % ga), umumiy oqsil miqdori (65,0 dan 68,3 g/l gacha, 5,1 % ga) oshib borish dinamikasini namoyon etdi va bunda glukoza miqdori pasaymasdan, deyarli bir xil darajada saqlanib turdi.

Gematokrit ko'rsatkichi qo'zilar kasallanishining dastlabki kunlaridagi o'rtacha  $38,1 \pm 0,20$  % dan  $39,0 \pm 0,2$  % gacha (2,3 % ga) oshgan bo'lsada, bu o'zgarish nazorat guruhidagiga nisbatan 26,7 % (29 %-2,3 %) ga past bo'ldi.



**5-rasm. Davolash tadbirlarining kasal qo'zilar qon ko'rsakichlariga ta'siri**

5-rasmdan ko‘rinib turibdiki, davolash tajribalarida ikkinchi tajriba guruhidagi qo‘zilar qonidagi o‘zgarishlar ayniqsa sezilarli dinamikani namoyon etdi.

Xususan, ushbu guruhdagi qo‘zilar qonidagi eritrotsitlar soni tajriba boshidagi o‘rtacha 6,3 dan uning oxiriga kelib 7,1 mln/mkl gacha (12,7 % ga) oshganligi va bu oshishning birinchi tajriba guruhidagi o‘zgarishga qaraganda 3,2 % ga (12,7 % - 9,5 %) yuqori bo‘lishi qayd etildi.

Qonidagi gemoglobin miqdori tajriba boshidagi o‘rtacha 94,6 g/l dan uning oxiriga kelib 110,1 g/l gacha (16,3 % ga) oshganligi va bu oshishning birinchi tajriba guruhidagi o‘zgarishga qaraganda 1,7 % ga (16,3 % - 14,6 %) yuqori bo‘lishi qayd etildi.

Qonidagi glukoza miqdori tajriba boshidagi ortacha 2,20 dan uning oxiriga kelib 2,34 mmol/l gacha (6,35 % ga) oshganligi va bu oshishning birinchi tajriba guruhidagi o‘zgarishga qaraganda 6,3 % ga (6,35 %) yuqori bo‘lishi qayd etildi.

Gematokrit ko‘rsatkichi qo‘zilar kasallanishining dastlabki kunlaridagi o‘rtacha  $38,0 \pm 0,20$  % dan  $37,5 \pm 0,2$  % gacha (0,5 % ga) pasayganligi va bu pasayishning nazorat guruhidagiga nisbatan 29,5 % ga (29 % + 0,5 %) yuqori bo‘lishi qayd etildi.

Ushbu bobning to‘rtinchi bo‘limda “Tajribadagi qo‘zilarning mahsuldorlik ko‘rsatkichlari” berilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tana vaznining kunlik o‘sishi tajribalarning boshidagi ko‘rsatkichlarga nisbatan tajribalarning oxiriga kelib nazorat guruhida  $1,47 \pm 0,02$  kg ni, tajriba guruhlarida esa, mos holda,  $1,65 \pm 0,02$  va  $1,82 \pm 0,04$  kg ni tashkil etdi, ya‘ni bu ko‘rsatkich tajriba guruhlarida nazorat guruhiga nisbatan, mos holda, 12,2 va 24,0 % ga yuqori bo‘ldi.

## 5-jadval

### Tajribadagi qo‘zilarning mahsuldorlik ko‘rsatkichlari

Guruhlar	O‘rtacha tana vazni, kg				Nazoratga nisbatan, %
	Tajriba boshida, kg	10 kundan keyin, kg	O‘rtacha kunlik o‘shish, kg	Umumiy o‘shish, kg	
Nazorat	2,64±0,12	4,11±0,09	0,147	1,47±0,02	100
1-tajriba	2,60±0,11	4,25±0,09	0,165	1,65±0,02	112,2
2-tajriba	2,58±0,11	4,40±0,07	0,182	1,82±0,04	124,0

Dissertatsiyaning “Qo‘zilar dispepsiasining oldini olish” deb nomlangan beshinchi bobida asoslanishicha, oxirgi bug‘ozlik oyidagi sovliqlarga bir oy davomida xo‘jalik ratsioniga qo‘shimcha ravishda belgilangan miqdordagi LPP-1 premkisi, Multivit + minerallar vitamini preparati, Innoprovot probiotigi 1 g /10 kg miqdorida va ratsion tarkibidagi omixta yem o‘rnini bosuvchi boyitilgan granulali omixta yemni berish va iziga birdan ulardan tug‘ilan qo‘zilarga 10 kun davomida uvuz sutiga qo‘shimcha ravishda, Innoprovot probiotigi 1 g /10 kg miqdorida berish va 0,1 % Elbahor o‘simligi damlamasi 50 ml/10 kg ichirishga

asoslangan ikki bosqichli qo'shaloq guruhli oldini olish usuli boshqa muqobil variantlarga qaraganda qo'zilar dispepsiyasining oldini olishda yuqori profilaktik samarani namoyon etgan va bunda qo'zilar dispepsiya bilan kasallanishining to'liq oldini olinish (nazoratda kasallanish darajasi 20 % bo'lgan holda) hamda qo'zilar o'rtacha tirik vaznining nazoratga nisbatan 34,1 % ga yuqori bo'lishi ta'minlangan.

Ishning iqtisodiy samaradorligi. Tadqiqotlarda qo'zilar dispepsiyasining oldini olish bo'yicha o'tkazilgan tajribalarning iqtisodiy samaradorligi bir bosh sovliq hisobiga o'rtacha 332616 so'mni va bunda xarajatlar qoplami 3,5 so'mni, davolash tajribalarining iqtisodiy samaradorligi esa davolash o'tkazilgan har bir bosh qo'zi hisobiga o'rtacha 236986 so'mni va xarajatlar qoplami 3,0 so'mni tashkil etishi aniqlangan.

## XULOSALAR

1. Qorako'l qo'zilar dispepsiya bilan kasallanish darajasi o'rtacha 22-29 foizni tashkil etadi va bu kasallik har bosh sovliq hisobiga yiliga o'rtacha 300-500 ming so'mdan iqtisodiy zarar keltiradi.

2. Qo'zilar dispepsiyasining asosiy sabablari bo'lib bug'oz sovliqlarda kuzatiladigan metabolizm buzilishi kasalliklari, uvuz (sut) tarkibida immunoglobulinlar miqdorining pastligi (IgG,  $32,0 \pm 0,56 - 46,0 \pm 0,46$  mg/l), shuningdek, yangi tug'ilgan qo'zilar saqlash va oziqlantirish qoidalarining buzilishlari hisoblanadi.

3. Dispepsiya paytida kasal qo'zilar kam harakatchanlik, so'rish refleksining susayishi (yo'qolishi), diareya, taxikardiya (bradikardiya), ko'z olmasining cho'kishi (enofthalm), teri turgorligining pasayishi, nafasning tezlashishi (siyraklashishi), ataksiya, depressiya, yotib qolish va periferik gipotermiya belgilari kuzatiladi. O'lim darajasi kasallikning 36-48-soatida 20-40 foizni, 48-72-soatida 60-80 % foizni tashkil etadi.

4. Dispepsiya paytida kasal qo'zilar qonida gemoglobinning  $68,8 \pm 0,11$  g/l gacha, glukozaning  $1,60 \pm 0,04$  mmol/l gacha, pH-ning 6,5 gacha, ishqoriy zahiraning  $3,22 \pm 0,10$  mekv/l gacha, immunoglobulinlar (IgG) miqdorning 7,6 mg/ml gacha kamayishi, gematokrit ko'rsatkichining esa 38,2-48,8 % gacha ko'tarilishi kuzatiladi.

5. Dispepsiya bilan kasallangan qo'zilarga maxsus tarkibli infuzion eritmani 200 ml miqdorida qorin bo'shlig'iga in'eksiya qilish, 1g/10 kg miqdorida Innoprovot probiotigini sutga aralashtirilgan holda hamda 50 ml/10 kg miqdorida 0,1 % foizli Elbahor o'simligi damlamasini ichirishga asoslangan takomillashgan davolash usulini qo'llash kasal qo'zilar dispepsiyasining o'rtacha 5-7 kunda to'liq sog'ayishini ta'minlaydi.

6. Dispepsiya bilan kasallangan qo'zilarga takomillashgan davolash usulini qo'llash qondagi eritrotsitlar sonining dastlabki holatiga nisbatan 0,8 mln/mkl, gemoglobinning 15,5 g/l, umumiy oqsilning 3,3 g/l va glukozaning 0,14 mmol/lga oshishi hamda gematokritning meyorlashishini taminlaydi.

7. Sovliqlarga bug‘ozlikning oxirgi bir oyi davomida xo‘jalik ratsioniga qo‘shimcha ravishda LPP-1 premiksi (500 kg yemga 1 kg), Innoprovat probiotigi (1g/10 kg) va boyitilgan granulali omixta yemni berish, ulardan tug‘ilan qo‘zilarga esa 10 kun davomida uvuz sutiga qo‘shimcha ravishda 50 ml/10 kg miqdorida 0,1 foizli Elbahor o‘simligi damlamasini ichirish va 20 daqiqa o‘tgach 1g/10 kg miqdorida Innoprovat probiotigini 100 ml sutga aralashtirilgan holda ichirishga asoslangan ikki bosqichli guruhli oldini olish usuli qo‘zilar dispepsiyasining to‘liq oldini olish imkonini beradi.

8. Qo‘zilar dispepsiyasining oldini olishda takomillashgan guruhli oldini olish usulini qo‘llash har bosh sovliq hisobiga o‘rtacha 332616 so‘mdan, takomillashgan davolash usulini qo‘llash har bosh qo‘zi hisobiga o‘rtacha 236986 so‘mdan iqtisodiy samara olish imkonini beradi va bunda xarajatlar qoplami, mos holda, 3,5 va 3,0 so‘mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.06/30.12.2019.V.12.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВЕТЕРИНАРНОЙ  
МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И  
БИОТЕХНОЛОГИЙ**

**АСКАРОВ САЛАХИДДИН САИТАЗИМ УГЛИ**

**ЭТИОПАТОГЕНЕЗ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ  
ЛЕЧЕНИЯ И ПРОФИЛАКТИКИ ДИСПЕПСИИ ЯГНЯТ**

**16.00.01 – Диагностика, терапия и хирургия болезней животных**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ВЕТЕРИНАРНЫМ НАУКАМ**

**Самарканд – 2024**



Тема диссертации на степень доктора философии (PhD) по ветеринарным наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.2.PhD/V132.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий

